



Zamonaviy milliy musiqa ijrochiligining inson ma'naviy kamolotini rivojlanishidagi o'rni

Abdullaev Dostonbek Inom o'g'li

QDU "Cholg'u ijrochiligi va vokal san'ati" kafedrasida o'qituvchisi,

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy milliy musiqa ijrochiligining inson ma'naviy kamolotini rivojlanishidagi o'rni xususida tarixiy manbalarda buyuk allomalarimiz tomonidan meros qilib qoldirilgan musiqiy risolalar va bugungi kun xolati atroflicha o'rganildi. Tarixiy manbalarni o'rganishda katta hissa qo'shgan o'zbek musiqashunos olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari tavsif etilgan.

Kalitli so'zlar: Shahq taronalari, ustoz-shogird, Shashmaqom, Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Xorazm maqom, cholg'u ijrochilik, an'anaviy ijrochilik

O'zbek milliy musiqiy madaniyati juda katta va boy badiiy-estetik qatlamni tashkil etadi. Fayzulla Karomatovning ta'kidlashicha, "O'zbek musiqa merosi faqatgina folklor asarlari bilan cheklangan bo'lmay, professional va og'zaki an'anaviy merosimizni, shuningdek, professional ijrochilikni, professional musiqani va professional janrlarni o'z ichiga qamrab oladi"¹. Bu fikrga qo'shilgan yana bir olimimiz Otanazar Matyoqubov "O'zbek musiqa madaniyatimiz an'anasi juda uzoq tarixiy davrni o'z ichiga qamrab olgan. Qolaversa, xalq og'zaki hamda ustoz-shogird an'anasi yo'li bilan etib kelgan professional musiqa, ya'ni Shashmaqom, Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Xorazm maqomlaridan tashqari xalq kuy va qo'shiqlari, mavsum, marosim, mehnat kuy-qo'shiqlari bor"²-deb yozadi.

F.Karomatov va O.Matyoqubov sanab o'tgan o'zbek musiqa madaniyatiga, xuddi shuningdek, hozirgi zamonda bastakorlik ijodi, havaskorlik ansambllari, zamonaviy estrada mahsulotlari ham kiradi va ularning har biri alohida-alohida olib tadqiq etilishi va o'rganilishi mumkin.

Biz uchun asosiy manba musiqa madaniyatimizning xalq orasida keng tarqalgan an'anaviy tur va janrlarining bevosita inson ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda ommaviy tus olgan ko'rinishlaridir.


Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1997 yili Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taonalari" birinchi Xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tabrik so'zida shunday degan edi: "... Sharq musiqasining jahon madaniy merosida tutgan o'rni benihoya buyuk. Siz mehmon bo'lib turgan qadimiy Samarqand muzeylaridan birida arxeologlarimiz topgan g'oyat noyob, tilla buyumlardan ham qimmatliroq musiqiy asbob-besh ming yillik nay avaylab asralmoqda. Uni ko'rgan inson beixtiyor Sharq musiqasi tarixini angelaydi. Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O'zining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo'shmoqda"³.

Binobarin, xalqimiz musiqiy merosi juda boy va qadimiy tarixga ega bo'lgan madaniyatning noyob bir turi hisoblanadi. An'anaviy tarzda rivojlanib kelayotgan musiqa madaniyatimiz turli tarixiy davrlar uchun, jumladan, hozirgi bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tish davrida ham insonni ma'naviy yuksaltirishning samarali vositasi bo'lib qolmoqda.

¹ Кароматов Ф. Муסיкий меросимизни ўрганиш масалалари. Давра суҳбати - рС, 1978, 8-сон, 23-бет.

² Магёкубов О. Мерос ва замонавий муסיка. Давра субати. -СЎС, 1979, 8-сон, -бет.

³ Каримов И. Хавфсизлик ва барқарор таракқудёт йўлида. 6., -Тошкент: Ўзбекистон, 1998, 322-бет.



Musiqasiz inson hayotini, millat tarixi va kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi. Kuy-qo'shiq odamzod ma'naviy olamining, eng noyob durdonalaridan biridir.

Kishilik jamiyati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zining baxti va baxsizligi, shodligi va iztiroblarini, ezgu niyatlari va yuksak insoniy tushunchalarini kuy-qo'shiq orqali ifodalab kelgan. Ana shu ma'noda cholg'u ijrochilik san'ati har bir xalqning hayoti, tarixi, taqdiri va go'zallik haqidagi tasavvurlarining jonli va o'chmas sadolaridir.

Cholg'u ijrochilik san'atida badiiy ijodiyotning uchta noyob jihatlari jam bo'ladi: xalq cholg'u sozgar ustalarining ezgu orzulari, xalq bastakorlik musiqasi va sozandalarning yuksak ijrosi. Qachonki bu uch jihat bir-biriga monand kelsagina ma'naviy komillikka etaklovchi kuy dunyoga keladi.

Cholg'ular paydo bo'lgandan to shu bugungi kungacha cholg'u ijrochiligining bu uch qirradi o'rtasidagi garmoniya yoki ziddiyat cholg'u ijrochilik san'atining u yoki bu davrdagi, u yoki bu bastakor va sozanda ijodini belgilab keladi.

Ulug' san'atkorlar xalqni tebratadi, tinchlantiradi, unga orom beradi, uning yuragiga shodlik, baxt hadya etadi. Ana shuning uchun ham xalqimiz Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Orifxon Hotamov, Muhammadjon Mirzaev, To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, G'anjimon Toshmatov, Turg'un Alimatov, G'ulomjon Hojiqulov, Halimjon Jo'raev, Abduhoshim Ismoilov, Abdulahad Abdurashidov kabi xonanda va sozandalarimiz maromiga etkazib ijro etgan kuy-qo'shiqlarni sevib tinglaydi. Bu san'at fidoyilari san'atini tinglaganda qaysi jihati kuy, qaysi jihati qo'shiq ekanligini ajratish qiyin bo'lib, yahlit musiqiy go'zallik tarzida tinglovchi qalbini larzaga soladi.

Mustaqillik tufayli erishilgan ijtimoiy-ma'naviy muhitdan foydalanilgan holda hozir har qachongidan ko'ra tilshunos, adabiyotshunos, musiqashunos olimlarimiz, shoir va bastakorlarimizning ijodiy hamkorligini kuchaytirish va milliy musiqiy madaniyatimizning butun badiiy-yestetik mohiyatini har tomonlama tadqiq etish orqali ko'p-ko'p yutuqlarga erishilmoqda.

"Zamonaviy musiqani ko'proq yaratish kerak" degan shior mumtoz musiqiy merosimizga kam e'tibor qaratish degan ma'noni bermaydi. Zamonaviy badiiy-estetik tafakkur yahlit va murakkab jarayon sifatida o'zida turli-tuman jihatlar, holatlar, g'oyalar va taqlid namunalarini tashiydi. Uni bir yoqlama qondirib bo'lmaydi. Shu bilan birga zamonaviy estetik ehtiyojni e'tiborga olmaslikning iloji yo'q. Uning o'ziga xos idrok va zavqlanish xususiyatlari ham borki, bu narsa zamonaviy musiqiy madaniyatning murakkab birligini taqozo etadi.

Milliy musiqamizda bir tomondan milliy merosimizni asos qilib olgan va ko'proq xalqchil asarlari bilan xalq orasiga chuqur tarqalgan bastakorlar, ikkinchi tomondan, professional kompozitorlar va ularning xalq musiqasi ruhida yaratgan ijod mahsulotlari mavjudki, ularning ko'pchiligi musiqiy ma'lumot nuqtai nazaridan yuqori saviyada bo'lsada ommaviy tus olib ketmayotgani ham aniq.

Ayrim yosh kompozitorlar ijod qilayotgan asarlarda milliy ruh va xalq musiqiy merosi nafasining sustligi ularning ommalashib ketmayotganiga asosiy sabab bo'lmoqda. Ularda yo xalq musiqasi to'g'ridan-to'g'ri yangi asarga ko'chiriladi, yo taqlidiy tafakkur aniq sezilib qoladi. Natijada xalq milliy musiqiy merosiga xos bo'lgan kuy yahlitlik va inson ma'naviyatini butunlay chirmab oladigan badiiy-estetik ruh etishmaydi.

Ilmiy izlanishlar shundan dalolat beradiki, musiqa millat va inson ma'naviy hayotining teran jarayonlariga daxldor tarzda taraqqiy etadi. Ana shu ma'noda har bir etuk san'atkor nomi millat va davr ovozi sifatida yangraydi.

Bastakor xalq musiqiy merosi, didi va ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olsagina, milliy musiqiy an'analar doirasida o'z iste'dod imkoniyatini namoyon etsagina musiqiy madaniyatimiz hazinasini boyita oladigan qo'shiqlar, kuylar yaratishi mumkin.



Musiqa haqida gap ketganda birinchi navbatda ko‘z oldimizga sozandalar keladi. Aksariyat hollarda sozandalar orqali bastakorni tanishimiz, bastakor xuddi teatr va kino rejissyori kabi o‘zi ko‘rinmaydi, ammo uni ijrochilar ko‘rsatadilar. Bastakor bo‘lmasa kuy bo‘lmaydi, shoir bo‘lmasa she'r-g‘azal bo‘lmagani kabi. Bir-biriga ustoz, biri-biriga shogird, ikkalasi bir bo‘lsa “musiqa” deb atalmish qalb qo‘ri vujudga keladi.

Qadim zamonlardan buyon xalqimiz bastakor bilan sozanda, xonandani bir-biridan yaxshi farq qilib, ajratib kelgan. Ham bastakor, ham sozanda, ham xonanda san'atkorlar ko‘p bo‘lgan. Bu-bizning milliy musiqiy madaniyatimizni belgilaydigan ma'naviy qadriyat, meros sifatida ko‘zga tashlanadi.

Bastakor tabiat va jamiyatni idrok etar ekan, o‘z ongida paydo bo‘lgan fikr, mulohaza va kechinmalarni ijod jarayonida sozlar tiliga aylantiradi hamda bu til vositasi orqali xalq bilan muloqot qiladi. Bastakor yoki sozanda tabiiy va ijodiy ohanglarni idrok etib, o‘z navbatida, ularni yangilashga, kuchaytirishga harakat qilaladi.

XX asr o‘zbek bastakorlik san'ati xususiyatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda ham ikki xil tamoyil yo‘nalishlarini kuzatish mumkin. Zamonaviy bastakorlar yangi qo‘shiq va kuylarni yaratishda xalq musiqasi ijodiyoti tizimidagi ijodkorlik-kashfiyotchilik xususiyatiga asoslanib, asosan ikki xil manbaga tayanishadi: birinchisi-kuylarning janr, shakl xususiyatlarini yangi talqinda qo‘llash, ikkinchisi-davr aks sadosidan iborat yangi ohanglarni kuyda yangratish usullarini kashf etib, milliy ruh omillariga singdirib borishdir.

“Misol uchun jaz musiqasining kirib kelishi ham, bir tomondan, zamon talabi va estetik ehtiyojiga javob bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jaz usulidagi serqochirimlik, ritm injiqligi o‘zbek musiqasiga xos san'atlardan biri bo‘lgani uchun xalq sozandalari buni tezda ilg‘ab oldilar”⁴

Har bir davrda xalqning ma'naviyati, estetik qarashlari, madaniyati, ijtimoiy ahvoli rivojlanib, o‘zgarib kelganidek, bastakor ham o‘z davri ruhiga mos va xos ohanglar tizimini ta'rif etadi va shu bilan birga cholg‘u ijrochiligi va xonandachilik ham shunga moslashib o‘zgarib rivojlanib kelgan. Ikkinchi jahon urushi yillari bastakorlar tomonidan yaratilgan qo‘shiqalarda marshga xos shaxdam zarb va shijoatli, chorlovchi ohanglarning ustuvorligi bunga misol bo‘la oladi.


Musiqiy madaniyatimizning bunday taraqqiyot jarayonlari milliy merosimizga munosabat va undan foydalanishga doir ayrim kamchilik va nuqsonlardan forig‘ bo‘lishga ham olib keldi. Agar avvallari ma'lum xalq kuyiga yangi biron bir she'rni solib kuylash, milliy musiqasi ohanglaridan an'anaviy shaklni eslatuvchi kuy bastalash odat tusiga kirgan bo‘lsa, bunday usullar 50-yillar oxiri va 60-70-yillarda asta-sekin yo‘qola boshladi. Bastakorlar yuksak mahorat talab qiladigan, an'anaviy va murakkab zamonaviy usullarni mujassamlashtiradigan kashfiyotlarga o‘ta boshladilar.

Bastakorlarning yangi-yangi musiqalarida inson shijoati, iftixor tuyg‘ularini ifodalovchi tantanavor da'vat ohanglari kuchaydi. Natijada “O‘zbek musiqasining qo‘shiq janriga xos aniq, o‘lchovli tuzilish, ixcham shakl, tovushlarining bosqichma-bosqich siljishi bilan ko‘p qo‘shiq va kuylar yaratildi”⁵.

Tarixiy an'ana va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘zbek musiqasi madaniyatining taraqqiyot tamoyillari, uning xalq ma'naviyatida tutgan o‘rni va hozirgi ahvoli 90-yillarning boshlarida bir qator kompozitor, musiqashunos va madaniyatshunos olimlarning jiddiy bahs va munozaralariga sabab bo‘ldi. Zamonaviy o‘zbek musiqasi va uning dolzarb muammolari to‘g‘risida musiqashunos olimlarimiz: “Musiqasi tariximizda, asosan, maqomlar, baxshichilik san'ati, xalq qo‘shiqlari va kuylari taraqqiy etib kelgan, ular hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini. Shu bilan birga 70 yil orasida ko‘p ovozlilikka asoslangan murakkab

⁴ Қаранг: Воҳидов С. Куй-қўшиқнинг қаноти.-СЎС, 1981, 12-сон, 19-6.

⁵ Воҳидов С. Куй-қўшиқнинг қаноти. - СЎС., 1981, 12-сон, 19-6.



musiqa janrlarini o'zlashtirish jarayoni ham kechdi. G'ijjakning yolg'iz o'zida kamonsiz kuy chalib bo'lmaganidek, bizga polifoniya kerak. Shu boisdan ko'p ovozlilik uslubiga asoslangan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Maysaraning ishi" kabi sahna asarlariga ega bo'ldik.

Bizga an'anaviy xalq musiqasi ham, kompozitorlik ijodi ham kerak. Gap milliy zaminga asoslanishi zarur bo'lgan kompozitor o'z vazifasini qanday bajarishida. Biroq 70-yillarga kelib, yoshlar o'rtasida ovrupocha avangard musiqa va uning taxnikasi keng rasm oldi. Tonal va notonal texnika egallandi. Biz bu ijodiy hodisani rad etolmaymiz. Biroq shuni ham ta'kidlash o'rinliki, bu musiqa erkinlik bayrog'i ostida milliylikni to'la inkor etadi. Avangard musiqa haddan ortiq bino qo'ygan ayrim yosh kompozitorlarimiz engil-yelpi yo'llar bilan obro' qozonmoqchi bo'ladilar" degan fikrlarni bildirdilar.

Mustaqillik sharofati bilan xalq ma'naviy madaniyatini yuksaltirishda beqiyos imkoniyatlarga ega bo'lgan zamonaviy o'zbek musiqasining kelajakdagi taraqqiyot tamoyillariga e'tibor qaratildi. Xalq va mamlakat ma'naviy takomili milliy an'analar, milliy qadriyatlarni chuqur o'rganish, o'zlashtirish va davom ettirishda ekanligiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Musiqa xalqimiz ma'naviyatini, madaniyatini, ijtimoiy ahvolini yaxshilovchi vosita sifatida rivoj topib kelmoqda. Musiqa tinglamaydigan, oz bo'lsada xirgoyi qilib yurmaydigan, biror qo'shiqni boshidan oxirigacha yod bilmaydigan odam kam topiladi. Shunday ekan, milliy musiqa xalqimiz didi, estetik tarbiyasini va ma'naviyatining yuksalishida juda katta badiiy-yestetik imkoniyatlarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karomatov F. Musiqiy merosimizni o'rganish masalalari. Davra suhbatlari - rS, 1978, 8-son, 23-bet.
2. Matyokubov O. Meros va zamonaviy musiqa. Davra suhbatlari. -SO'S, 1979, 8-son, -bet.
3. Qarang: Vohidov S. Quy-ko'shiqning qanoti. -SO'S, 1981, 12-son, 19-6.
4. Vohidov S. Quy-ko'shiqning kanoti. - SO'S., 1981, 12-son, 19-6.
5. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6., -Toshkent: O'zbekiston, 1998, 322-bet.